O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# SHARQSHUNOSLIK SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH VA ILMIY SALOHIYATNI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tomonidan O‘zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash, jahonda ro‘y berayotgan jarayonlarni to‘g‘ri talqin qila oladigan tahliliy tafakkurga ega kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash, sharq tillari bo‘yicha sinxron tarjimonlarni yetishtirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, institutda sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, ilmiy-pedagogik salohiyatni rivojlantirish, ta’lim jarayonining o‘quv-uslubiy va axborot ta’minotini yaxshilash, moddiy-texnik bazani zamon talablariga mos ravishda yangilashda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda.

Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida:

1. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti negizida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o‘rinlarda — Universitet) tashkil etilsin.

2. Universitetning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

Sharq mamlakatlarining tillari, tarixi, madaniyati, moddiy va ma’naviy merosi, iqtisodiyoti, siyosati, xalqaro maydondagi nufuzi, ularning zamonaviy antropologiya va etnologiyasi, tarjimashunoslik, shuningdek, turizm va gid hamrohligi sohalarida zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, mehnat bozori uchun raqobatbardosh bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;

Sharq mamlakatlarining rivojlanish omillari, ulardagi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, sharq madaniyati va merosi, qadimiy yodgorlik va qo‘lyozmalarni ilmiy jihatdan o‘rganish, mazkur yo‘nalishda ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash hamda mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

respublikada sharq tillari va adabiyoti, tarixi, madaniyati, falsafasi, siyosati va iqtisodiyotini o‘qitish bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi sifatida xorijiy mamlakatlarning tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda sharq tillarini bilish darajasini baholovchi metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, til ta’limi sohasida hamda Sharq mamlakatlari bo‘yicha axborot beruvchi zamonaviy media mahsulotlar va elektron o‘quv adabiyotlarni ishlab chiqish;

Sharq mamlakatlaridagi zamonaviy tendensiyalar, tarixiy jarayonlar, sharq xalqlarining madaniy aloqalari va merosini tadqiq qilish, tahliliy ma’lumotlar tayyorlash hamda mazkur sohada ilmiy-ommabop adabiyotlar, darslik va monografiyalar chop etish;

talaba-yoshlar va professor-o‘qituvchilarda Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirib borish;

sharqshunoslik va sharq madaniy merosi sohalarida professor-o‘qituvchilarning respublika hamda xorijiy mamlakatlarda stajirovka o‘tash va ularning malakasini oshirish ishlarini muntazam tashkil etish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda respublika uchun istiqbolli bo‘lgan yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish hamda xalqaro loyihalarni amalga oshirish.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab:

Universitetga ta’lim standartlarini ishlab chiqish, malakaviy talablar, o‘quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda talabalarning bilimini baholash

hamda o‘quv jarayonining amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta’minlash tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash huquqi beriladi;

Universitetda ta’lim jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan qo‘shma ta’lim dasturlarining o‘quv rejalari va fan dasturlari Universitet tomonidan xorijiy hamkorlar bilan kelishilgan holda mustaqil tasdiqlanadi;

Universitetda sharq tillari o‘qitiladigan ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun doimiy faoliyat yurituvchi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etiladi hamda kurslardan muvaffaqiyatli o‘tgan pedagog kadrlarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining:

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab Universitetga o‘qishga qabul qilishda sharq tillaridan (turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg‘ur, yapon tillari) topshiriladigan ko‘p balli tizim bo‘yicha imtihonlar o‘rniga test sinovlari o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish;

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab ushbu tajribani boshqa tillar (ispan, italyan, tojik, qozoq, turkman, qirg‘iz tillari va boshqalar) bo‘yicha respublikadagi barcha davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda joriy etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi bilan birgalikda test sinovlari bazasini va kerakli infratuzilmani o‘z muddatida va sifatli shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

5. Universitet, o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotganini hisobga olib, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab:

professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqsin hamda ularning ish faoliyatini darslarga sifatli tayyorgarlik ko‘rishga va ilmiy salohiyatini kuchaytirishga qaratsin;

ilmiy loyihalarni bajarish jarayoniga iqtidorli talabalar, magistrantlar va doktorantlarni jalb qilishni kengaytirsin;

iqtidorli talabalar, magistrantlar va doktorantlarning ilmiy, innovatsion va startap loyihalarini tanlov asosida moliyalashtirish choralarini ko‘rsin;

fakultetlar tarkibi va kafedralar yo‘nalishlarini ko‘rib chiqsin hamda ularning faoliyatini yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasi asosida qayta tashkil etsin;

ta’lim sifatini oshirish, o‘quv va ilmiy faoliyatni ilg‘or xorijiy tajriba asosida tashkil etish maqsadida nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari ishtirokida onlayn kurslar, ma’ruzalar va mahorat darslarini muntazam tashkil etsin;

professor-o‘qituvchilar va mas’ul xodimlar uchun, zarurat tug‘ilganda, tajribali mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida kredit-modul tizimiga o‘tish bo‘yicha seminar-treninglar turkumini tashkil qilsin;

nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda salmoqli ilmiy nashrlar e’lon qilgan, “ustoz-shogird” tamoyili asosida iqtidorli talabalar, magistrantlar, doktorantlar yoki yosh professor-o‘qituvchilar bilan hammualliflikda yuqori impakt-faktorli xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar chop etgan professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini joriy etsin.

6. Quyidagilar:

a) 2020 — 2023-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini kompleks rivojlantirish dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda, shu jumladan quyidagilar nazarda tutilsin:

o‘quv rejalarida amaliy va sayyor mashg‘ulotlarni o‘tkazishni kengaytirish, talabalarda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan fanlarga ajratilgan soatlar ulushini oshirish;

ta’lim mazmunini kreativ fikrlash, innovatsion g‘oya va ishlanmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalari bilan boyitish;

ilg‘or xorijiy tajriba asosida boshqaruv xodimlari va professor-o‘qituvchilar faoliyatini kompleks baholash indikatorlari asosida moddiy rag‘batlantirish tizimini yaratish;

Universitet salohiyatini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida Universitet doktoranturasiga qabul kvotasini ko‘paytirish, yangi ixtisosliklar bo‘yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni tashkil etish;

professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalar uchun badiiy, ilmiy va o‘quv adabiyotlari elektron kataloglari hamda jahon ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, Universitetning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlash;

b) 2023-yilgacha Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) (keyingi o‘rinlarda — maqsadli ko‘rsatkichlar) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:

2020-yil 1-iyulga qadar Universitet huzuridagi akademik litsey faoliyatini tanqidiy o‘rganib, uning faoliyatini takomillashtirish, qabul jarayoniga qo‘yilgan talablarni qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin;

chora-tadbirlar dasturida akademik litseyga o‘quvchilar xorijiy tilni bilish darajasiga qarab qabul qilinishini hamda Universitet kafedra mudirlari va yetakchi olimlarining akademik litsey o‘quv guruhlariga biriktirilishini nazarda tutsin.

8. Sharq tillari sohasida o‘rta bo‘g‘in professional kadrlarni tayyorlash, shuningdek, iste’dodli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish maqsadida Namangan va Xiva shaharlarida sharq tillari bo‘yicha texnikumlar tashkil etilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2020-yil 1-avgustga qadar Namangan va Xiva shaharlarida tashkil etilayotgan sharq tillari bo‘yicha texnikumlarni sharq tillarini o‘qitishga moslashtirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rsin.

9. Ta’lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashda innovatsion usullarni joriy etish maqsadida Universitet tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan:

sharq tillari bo‘yicha malakali tarjimonlarni zamonaviy usullar asosida amaliyot bilan uyg‘unlikda tayyorlashga qaratilgan Sinxron tarjima laboratoriyasi;

talabalarda mustaqil ta’lim kompetensiyalarini hamda sharq tillari bo‘yicha elektron ta’lim resurslarini shakllantirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan Multimedia markazi tashkil etilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Fanlar Akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Madaniyat vazirligining Universitet huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi hamda Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazini (keyingi o‘rinlarda — markazlar) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Quyidagilar:

sharq xalqlarining madaniyati, sharq tillaridagi adabiy, tarixiy, falsafiy manbalarni har tomonlama chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda yurtimiz qadriyatlari va milliy madaniy merosimizni dunyo miqyosida targ‘ib etish Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazining;

Sharq mamlakatlari tarixi, rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlari va rivojlanish modellarini kompleks tadqiq etish, O‘zbekiston Respublikasining Sharq davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘rganish Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahlil markazining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin.

Belgilab qo‘yilsinki, shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar, ilmiy-texnik dasturlarga ajratilgan budjet mablag‘lari, Universitetning budjetdan tashqari

mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar markazlar faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining:

yozma yodgorliklar bo‘yicha maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma manbalarning faksimile, foto, skaner nusxalari bilan Universitetni bepul ta’minlash;

Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari va muzeylari huzurida Universitetning adabiy va tarixiy manbashunoslik yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlovchi kafedralarining filiallarini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Fanlar akademiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda har yilgi ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda ularda sharqshunoslik sohasi bo‘yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilishini nazarda tutsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Universitet bilan birgalikda:

Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Zamaxshariy va boshqa buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tili, madaniyati va tarixiga oid yozma manbalarni;

Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari tarixi, antropologiyasi, tili va adabiyoti, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, ichki va tashqi siyosatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida “Sankt-Peterburg davlat universiteti” federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasini o‘rnatilgan tartibda kiritsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Tashqi ishlar vazirligining Universitet xalqaro obro‘sini mustahkamlash, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, ilg‘or tajribalarni o‘quv va ilmiy jarayonga tatbiq etish maqsadida chet ellik mutaxassislar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik vakolatxonalar va xalqaro tashkilotlarning malakali xodimlari tomonidan Universitetda ma’ruzalar o‘qish va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

16. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi Universitet buyurtmalariga binoan dars berish, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ilmiy-nazariy ma’ruzalar o‘qish uchun taklif etiladigan chet ellik professor-o‘qituvchilar, olimlar va mutaxassislarga ko‘p martalik kirish vizalarining berilishi va uzaytirilishini, O‘zbekiston Respublikasidagi vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishini ta’minlasin.

*(16-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-yanvardagi PF-6146-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son)*

17. Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi institutining Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 20a-uy manzilida joylashgan bino va inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda Universitetga operativ boshqaruv huquqi asosida beg‘araz o‘tkazib berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Toshkent shahar hokimligi 2021-yil 1-avgustga qadar mazkur bandga muvofiq Universitetga berilgan hududda Universitetning yangi 9 qavatli binosi va sport majmuasini qurish va foydalanishga topshirish choralarini ko‘rsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda Universitetning yangi binosi va sport majmuasini qurish hamda jihozlash uchun zarur mablagʻlarni jalb qilsin va oʻz vaqtida ajratsin;

Hisob palatasi bilan birgalikda Universitetning yangi binosi va sport majmuasini qurish hamda jihozlash uchun ajratilgan mablagʻlarning oqilona va maqsadli sarflanishi yuzasidan doimiy nazorat oʻrnatsin.

19. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hamda “El-yurt umidi” jamgʻarmasi Universitetning asoslantirilgan takliflari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida professor-oʻqituvchilar, rahbar xodimlar va tadqiqotchilarning xorijda amaliyot oʻtashi va stajirovkasini tashkil etish choralarini koʻrsin.

20. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. Mazkur qaror ijrosini tashkil etishning quyidagi tartibi oʻrnatilsin:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov — mazkur qarorning ijrosini sifatli, toʻliq va oʻz vaqtida ta’minlash, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mas’ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilsin hamda muvofiqlashtirsin, har chorakda ular rahbarlarining bajarilgan ishlar toʻgʻrisidagi hisobotlarini qabul qilsin hamda aniqlangan kamchiliklarni oʻz vaqtida bartaraf etsin;

Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov — sharqshunoslik sohasida yetarli bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, Universitet faoliyatini lozim darajada tashkil etish, sharq tillarini bilish darajasini baholash tizimini joriy qilish, maqsadli koʻrsatkichlarga erishish, Dasturni ijro etish yuzasidan barcha zarur choralar koʻrilishini ta’minlasin, mazkur qarorda belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirishda mas’ul tashkilotlarga uslubiy va amaliy yordam koʻrsatsin hamda uning ijrosi boʻyicha har oyda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borsin;

mas’ul vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari — mazkur qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni oʻz vaqtida, sifatli va toʻliq bajarish, sharqshunoslik sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va ilmiy salohiyatni yaxshilash yuzasidan barcha choralarni amalga oshirsin;

Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori A.K. Koʻchimov hamda Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi A.D. Xadjayev — mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar, brifinglar, matbuot anjumanlar, tematik telekoʻrsatuvlar tashkil etsin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 16-aprel,
PQ-4680-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son qaroriga
1-ILOVA

**2020 — 2023-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini kompleks rivojlantirish**

DASTURI

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish va natijalarga erishish mexanizmlari | Moliyalashtirish manbalari | Amalga oshirish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Ta’lim sifatini oshirish, yoʻnalishlar va mutaxassisliklarni maqbullashtirish, kadrlar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish hamda tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.1. Kadrlar iste’molchilari bilan aloqalarni muvofiqlashtirish va bitiruvchilar bilan ishl�sh** | | | | | |
| 1. | Tashkilotlar va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarda talabalar amaliyotini tashkil etish | Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi talabalari amaliyotini Universitetga baza sifatida belgilangan ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish muassasalarida tashkil etish.<br><br>Talabalar amaliyotini bosqichma-bosqich bevosita tili o‘rganilayotgan mamlakatda o‘tkazish.<br><br>Universitetda kadrlar iste’molchilari bilan aloqalarni muvofiqlashtirish, talabalar amaliyotini samarali tashkil etish va monitoring qilish bilan shug‘ullanuvchi Amaliyot va hamkorlik bo‘limini tashkil etish. | -<br><br>Universitet va homiy tashkilotlar mablag‘lari, xalqaro grantlar<br><br>Smeta asosida Davlat budjeti va Universitet mablag‘lari | 2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-sentabrdan<br><br>2020-yil 1-iyul | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov),<br><br>Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev),<br><br>Moliya vazirligi (A. Xaydarov),<br><br>Tashqi ishlar vazirligi (I. Ne’matov) |
| 2. | Magistraturada ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish | Magistratura dasturlarini ixtisoslikni chuqur o‘rganishga, pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga yo‘naltirish.<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik | Universitet mablag‘lari<br><br>-<br><br>- | 2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-iyul<br><br>2020-yil 1-iyul | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev),<br><br>hamkor tashkilotlar |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | instituti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Tarix instituti, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyini Universitetning ilmiy-tadqiqot bazasi sifatida belgilash.<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Fanlar akademiyasining tegishli ilmiy-tadqiqot institutlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, “O‘zarxiv” agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Respublika bandlikka ko‘maklashish va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi, siyosiy partiyalar, muzeylarni Universitetning amaliyot bazasi sifatida belgilash. | | | |
| 3. | Hamkor tashkilotlarda kadrlar tayyorlovchi kafedralar filiallarini tashkil etish | Universitetning ta’li? yo‘nal?shlari va mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida kafedralarning filiallari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.<br><br>Kafedralar filiallarida mashg‘ulotlar o‘tkazgan, malakaviy amaliyot hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik, maslahatchilik qilgan ilmiy xodimlarga Universitet tomonidan soatbay ish haqi to‘lash tartibini joriy etish. | -<br><br>Universitet mablag‘lari | 2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-sentabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>hamkor tashkilotlar |
| **1.2. Yangi o‘qitish uslublarini joriy etish, xorijiy tajriba asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish** | | | | | |
| 4. | O‘quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish va bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirish | Tarmoqlar va mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari va talablari hamda ilg‘or xorij tajribasi asosida yangi o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab | -<br><br>- | 2020-yil 1-avgust<br><br>2020-yil 1-avgust | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | chiqish hamda tasdiqlash.<br><br>Bunda bitiruvchilarning qo‘lyozmalar bilan ishlash, qo‘shma korxona va turistik kompaniyalarda gid-tarjimon sifatida faoliyat olib borishi uchun tili o‘rganilayotgan Sharq mamlakatlari va O‘zbekiston tarixi, madaniyati va urf-odatlariga oid kompleks bilimlarga ega bo‘lishiga erishish maqsadida fan dasturlari mazmunini takomillashtirish.<br><br>Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalarini maqbullashtirish orqali o‘quv fanlari sonini kamaytirish.<br><br>O‘quv rejalarida amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarni o‘tkazishni ko‘zda tutish, ta’lim va ilm-fan integratsiyasini ta’minlashga ajratilgan soatlar hajmini oshirish.<br><br>Bosqichma-bosqich rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini amalga oshirishni kengaytirish. | -<br><br>-<br><br>Universitet mablag‘lari | 2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-sentabr | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlaridan foydalanish samaradorligini oshirish | O‘qituvchilar tomonidan innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘zlashtirib borilishi, novatorlik ishlanmalari yaratilishining muntazam monitoringini yuritish.<br><br>Ta’lim mazmunini kreativ fikrlash, innovatsion g‘oya va ishlanmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalari bilan boyitish.<br><br>O‘quv jarayonida elektron ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy o‘qitish tizimini joriy etish. | -<br><br>Universitet mablag‘lari<br><br>Universitet mablag‘lari | 2020 — 2023-yillarda<br><br>2020-yil 1-avgust<br><br>2020-yil 1-sentabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov),<br><br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sodiqov) |
| 6. | O‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va joriy etish hamda Axborot-resurs markazi fondini muntazam yangilab borish | O‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga professor-o‘qituvchilar uchun moddiy va ma’naviy ta’minot asoslarini yaratish.<br><br>Darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy, uslubiy adabiyotlarni nashr qilish uchun Universitet xarajatlari smetasida muntazam mablag‘ ajratish.<br><br>Universitet ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini yangi avlod o‘quv | Universitet mablag‘lari<br><br>Universitet mablag‘lari<br><br>Universitet mablag‘lari | 2020-yil 1-avgust<br><br>2020 — 2023-yillarda<br><br>2020-yil 1-sentabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>Moliya vazirligi (A. Xaydarov) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | adabiyotlari bilan ta’minlash maqsadida Tahririy nashriyot bo‘limi faoliyatini takomillashtirish, bosmaxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va zamonaviy bosma jihozlar bilan ta’minlash. | | | |
| **1.3. Rektorat, fakultetlar, kafedralar va akademik litsey rahbar xodimlari va professor-o‘qituvchilari zaxirasini yaratish, ularning pedagogik mahorati va kasbiy darajasini oshirish** | | | | | |
| 7. | Kadrlar zaxirasini shakllantirish | Ilg‘or xorijiy tajriba asosida dekanatlar, kafedralar hamda bo‘limlar rahbarlari, shuningdek, professor-o‘qituvchilar faoliyatini ularning o‘quv-uslubiy, ilmiy, tarbiyaviy faoliyati samaradorligini kompleks baholash indikatorlari asosida moddiy rag‘batlantirish tizimini yaratish. | Universitet mablag‘lari | 2020-yil 1-sentabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov),<br>Adliya vazirligi (R. Davletov) |
| 8. | Pedagog kadrlar tarkibini sifat jihatdan yaxshilash | Universitet salohiyatini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida Universitet doktoranturasiga qabul kvotasini ko‘paytirish, yangi ixtisosliklar bo‘yicha oliy malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etish.<br>Magistraturaning iqtidorli bitiruvchilarini pedagogik | Davlat budjeti mablag‘lari<br>- | 2020-yil 1-sentabr<br>2020-yil 1-sentabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br>Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | faoliyatga jalb etish, yosh mutaxassislarni ishga qabul qilish orqali professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘rtacha yoshini pasaytirish. | | | |
| 9. | Pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish | Universitet tarkibida respublikada uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan sharqshunos kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini yo‘lga qo‘yish, bunda quyidagilarni nazarda tutish:<br><br>turdosh oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro dars kuzatish (peer review) tajribasini keng yo‘lga qo‘yish;<br><br>sharq tillari o‘qitiladigan ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br><br>sharq tillari o‘qitiladigan ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun tashkil qilingan qayta tayyorlash va malaka oshirish | Davlat budjeti mablag‘lari, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari, Universitet mablag‘lari<br><br>-<br><br>-<br><br>-<br><br>- | 2021-yil 1-yanvardan<br><br>2020-yil 1-sentabrdan<br><br>2020-yil 1-sentabr<br><br>2020-yil 1-sentabr<br><br>Har yili 15-noyabrga qadar | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov),<br><br>Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbayev),<br><br>Moliya vazirligi (A. Xaydarov),<br><br>tasarrufida ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kurslarining malaka talablari, oʻquv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish;<br><br>tasarrufida ta’lim muassasalari boʻlgan vazirlik va idoralar tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tinglovchilar kontingentini shakllantirish uchun oʻrnatilgan tartibda Universitetga buyurtma taqdim etish. | | | |
| 10. | Oʻquv yili natijalari boʻyicha professor-oʻqituvchilar faoliyatini baholash | Universitet professor-oʻqituvchilarining har oʻquv yili yakuni boʻyicha faoliyatini talabalar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnoma va amalga oshirilgan ishlarni kompleks tahlil qilish asosida baholash. | - | Har oʻquv yili yakunida | Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov) |
| **1.4. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish** | | | | | |
